

O'QUVCHILARGA XALQ HUNARMANDCHILIGINI O'RGATISHNING TARBIYAVIY AHAMIYATI

Yuldashov Qaxraman Kamulovich

Urganch davlat universiteti katta o'qituvchisi

Urganch, O'ZBEKISTON

E-mail: yuldashovqaxraman77@gmail.com

Annotatsiya: Maqola bugungi kunda yoshlarga, maktab o'quvchilariga xalq hunarmandchiligiga oid ishlarni o'rgatish ularni ma'naviy tomondan tarbiyalash, umuminsoniy ko'rinishdagi milliy qadriyatlarni singdirish, o'z xalqining hunarmandchiligi, urf-odatlari, asriy an'nalari bilan tanishtirishda va kasb-hunarga yo'naltirishda katta ahamiyatga ega ekanligi haqida so'z yuritilgn.

Kalit so'zlar va tushunchalar: o'qitish, o'quvchi, ma'naviy, urf-odat, tafakkur, rivojlantirish, sifat, samaradorlik.

НАРОДНОЕ ПРОМЫСЛО И ЕГО ЗНАЧЕНИЕ

Юлдашов Қахраман Камулович

старший преподаватель, Ургенчский государственный университет

Ургенч, УЗБЕКИСТАН

Электронная почта: yuldashovqaxraman77@gmail.com

Аннотация: В статье речь идет об обучении молодежи и школьников народным промыслам в наши дни, их духовном воспитании, усвоении национальных ценностей в общечеловеческой форме, знакомстве с ремеслами, обычаями, многовековыми традициями своего народа и его считается очень важным в профориентации.

Ключевые слова и понятия: обучение, ученик, духовность, традиция, мышление, развитие, качество, эффективность.

FOLK CRAFT AND ITS IMPORTANCE

Yuldashov Qaxraman Kamulovich

Senior Lecturer, Urgench State University
Urgench, UZBEKISTAN
E-mail: yuldashovqaxraman77@gmail.com

Abstract: The article deals with the teaching of folk crafts to young people and schoolchildren today, their spiritual upbringing, assimilation of national values in the universal form, acquaintance with the crafts, customs, centuries-old traditions of their people and it is said to be of great importance in career guidance.

Keywords and concepts: teaching, student, spirituality, tradition, thinking, development, quality, effectiveness.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2018-yil 28-dekabrda Oliy Majlisga qilgan Murojaatnomasida jumladan "... aholi o'rtasida ishsizlikni kamaytirish, odamlar va oilalarning daromadini oshirish lozim"ligini alohida ta'kidlagan edi. Bunday ulug'vor vazifani bajarish ish o'rinlarini hosil qilish va ko'paytirish bilan amalga oshirilishi hech kimga sir emas, albatta. Binobarin ish o'rnini hosil qilishning o'ziyoq murakkab va jiddiy vazifalardan biridir. Mahalliy sharoitda buni hal etishning yo'llaridan biri – o'quvchi-yoshlarga milliy hunar-mandchilik ishlarini o'rgatishdir. Chunki milliy hunarmandchilik ko'p hollarda murakkab jihoz va asbob-uskunalarni talab qilmaydigan, xomashyolarni ham mahalliy sharoitda topish va tayyorlash mumkin bo'lgan sohalardan hisoblanadi. Bu ishlarni albatta maktabda va maktabdan tashqari bolalar muassasalarida amalga oshirish mumkin[1].

Xalq hunarmandchiligi tarixi xalqlarning, jumladan, o'zbek xalqining mentalitetini ko'rsatuvchi omillardan biridir. Shuning uchun yoshlarga, maktab o'quvchilariga xalq hunarmandchiligiga oid ishlarni o'rgatish ularni ma'naviy tomondan tarbiyalash, umuminsoniy ko'rinishdagi milliy qadriyatlarni singdirish, o'z xalqining hunarmandchiligi, urf-odatleri, asriy an'nalari bilan tanishtirishda va kasb-hunarga yo'naltirishda katta ahamiyatga egadir. Binobarin respublikamizda muntazam ravishda o'tkazib kelinayotgan "Tashabbus" ko'rik-tanlovlari va boshqa shu kabi tadbirlar mazkur sohada amalga oshirilayotgan ishlarni ko'rsatuvchi va sarhisob qilishga yordam beruvchi muhim omillardan bo'lib qoldi. Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2019-yildan boshlab hunarmandchilik ishlari beshigi

bo'lgan qadimiy Qo'qon shahrida har ikki yilda xalq hunarmandchiligi bo'yicha xalqaro festival o'tkazish haqidagi qarori ayni muddao bo'ldi[2].

Xalq hunarmandchiligi naqqoshlik, ganchkorlik, zargarlik, yog'och o'ymakorligi, metall o'ymakorligi, kashtachilik, ko'nchilik, pazandachilik, yog'ochlarni kuydirib ishlash, kulolchilik, kosibchilik, mahsido'zlik, sangtaroshlik, temirchilik, pichoqchilik, anjomsozlik, qulfsozlik, misgarlik, ignasozlik kabi 150 dan ziyod sohaga ega bo'lib, o'zida kasb-hunar ta'limining ko'pgina xususiyatlari – amaliyligi, ijodiyliigi, milliyliigi, mahalliy xomashyolarni topish va foydalanish qulayliigi, o'g'il va qiz bolalar mehnatining o'ziga xosliigi, shahar va qishloq maktabini uyg'unlashtira olishi, asosiy hollarda murakkab qurilmalar, uskunalar, asboblal va stanoklar talab qilmasliigi, mashg'ulotlarni tashkil etishning soddaliigi bilan ajralib turadi. Natijada bu sohani yetarlicha o'rgangan, ma'lum kasblarni egallagan yoshlarning ishsiz qolmasliklari, mehnat bozorining raqobatbardoshliigi bilan alohida e'tiborga molikdir. Xalq hunarmandchilik san'ati milliy qadriyatlarini, an'analarni izchil o'rganish, rivojlantirish va takomillashtirgan holda boyitib borish malaka va ko'nikmalariga asoslanadi. Binobarin "Ta'lim to'g'risida"gi qonunda: "Umumiy o'rta ta'lim uzluksiz davlat ta'limi tizimida asosiy bo'g'in bo'lib, ta'lim oluvchilar ilmiy bilim, mehnat va boshlang'ich kasb-kor ko'nikmalari, ishbilarmonlik asoslarini egallashlari, shuningdek, ijodiy qobiliyatlarini va ma'naviy fazilatlarini rivojlantirishni ta'minlaydi", - deb ta'kidlangan. Xalq hunarmandchiligi yoshlarning tafakkuri, tasavvuri, estetik didi, epchilligi kabi sifatlarini shakllantirishga yordam beradi. Zero, bu sifat va fazilatlar yosh avlodni har tomonlama rivojlantirishga samarali ta'sir ko'rsatadi.

Hozirgi sharoitda yoshlarning mehnat va kasb tayyorgarliigi muhim ijtimoiy vazifa bo'lib, bu soha nazariyotchilari va amaliyotchilari, pedagog olimlar, o'qituvchi, tarbiyachi, murabbiy va ustalar yoshlarga xalq hunarmandchiligining turli qirralarini o'rgatishi, ularni shu yo'nalishlardagi kasblarni egallashga tayyorlashi hunarmandchiligimizni rivojlantirishga, taraqqiy ettirishga va shu orqali jahon madaniyati xazinasiga munosib hissa bo'lib qo'shishga olib keladi.

Milliy urf-odatlar, an'analar xalqlarning yashash sharoiti, milliy xususiyatlarni o'zida jamlab, ming yillar davomida hayot deb atalmish murakkab sinovlardan o'tib,

xalqning o'ziga xos tuzugi – qonuni darajasiga ko'tarilgan. Mustaqillik sharofati bilan bugunga kelib ajdodlarimizdan qolgan bebaho merosni o'rganish, amaliyotga tatbiq etishga keng shart-sharoitlar yaratildi[3].

Hozirgi davrda ta'lim-tarbiya ishini takomillashtirish, milliyalashtirish, jahon andozalariga mos keladigan pog'onaga ko'tarishda boy milliy-madaniy merosimizga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga, yangi davrning yangi talablariga alohida ahamiyat berish kerak. Bu esa eng avvalo zamonaviy ta'lim-tarbiya shakllari, vositalari va usullaridan keng ko'lamda foydalana oluvchi yuqori malakali o'qituvchilar tayyorlashni taqozo etadi. Ta'kidlash kerakki, ta'lim-tarbiyani bir-biridan ajratish mumkin emas. Tabiiyki, o'quvchilarda mehnatga muhabbat hissini toptirishda ta'lim-tarbiyaviy tadbirlarni ma'lum kasb-hunarlariga yo'naltirib tashkil etish katta ahamiyatga egadir. Bu ish oilada ota-onaning yoki boshqa katta yoshdagi kishilarning shaxsiy namuna ko'rsatishi, keyinchalik ta'lim-tarbiya maskanlarida o'tkaziladigan darslarda, jumladan, Texnologiya faniga oid mashg'ulotlarda insoniyat jamiyati to'plagan mehnatsevarlik an'analarini o'rganish orqali tarkib topadi.

Xalq hunarmandchiligi moddiy madaniyatimizning eng qadimiy va muhim turlaridan hisoblanadi va tasviriy hamda amaliy san'atining ko'pdan-ko'p sohalari bilan uyg'unlashib ketadi. Ammo tasviriy va amaliy san'at, buyumlarga badiiy ishlov berish jarayoni hamda xalq hunarmandchiligining o'ziga xosligi, yo'llari, xususiyatlari bir-biridan farqlanadi. Respublikamizda mavjud bo'lgan xalq hunarmandchiligining Toshkent, Samarqand, Buxoro, Nukus, Xiva, Termiz, Urganch, Namangan, Andijon, Farg'ona, Chust, Shahrisabz va boshqa ta'limiy-tarbiyaviy imkoniyatlari beqiyos bo'lib, o'ziga xosligi jihatidan bir-biridan ajralib turadi[5].

Milliy hunarmandchilikning turli sohalarini o'rganishda yoshlar quyidagi bilimlarga ega bo'ladilar: ma'lum kasb-hunar sohalarining tarixi, kelib chiqishi, etnik ildizlari, xalq ustalari va ularning ijodiy faoliyatlari; hunarmandchilikning milliy va jahon madaniyatida tutgan o'rni, hunarmandchilik sohalarining tarqalishi, geografiyasi, turlari, ularning yo'nalishlari; Toshkent, Samarqand, Xiva, Buxoro, Termiz, Nukus, Andijon, Farg'ona, Namangan, Rishton, Urgut hunarmandchilik maktablari ustalari va ularning o'ziga xos yo'llari; tarixiy me'morchilik obidalari,

ularning qurilishi, saqlash va ta'mirlash; mahalliy mehnat qurollari va xomashyolari zahiralarining manbalari, turlari, tarqalishi, ularning hunarmandchilik markazlarining shakllanishiga va rivojlanishiga ta'siri, hunarmandlar sulolalari, risolalari, xalq amaliy va tasviriy san'ati hamda hunarmandchilikning o'zaro bog'liqligi va aloqasi va boshqalar.

Milliy hunarmandchilik asoslarini egallashda yoshlar quyidagi *ko'nikma* va *malakalarga* ega bo'ladilar: turli xildagi materiallarni tanlash va ularga ishlov berish; hunarmandchilik asboblari, moslamalari bilan ishlash; ma'lum sohalarda foydalaniladigan elektr va mexanizatsiyalashtirilgan qurilmalar, moslamalar va uskunalar bilan ishlash; hunarmandchilik asarlarini asrash, ta'mirlash va umrini uzaytirish; texnologik va ishlab chiqarishga oid me'yoriy hujjatlar bilan ishlash; ishlab chiqarish jarayonlarni amalga oshirish, bozor iqtisodiyoti sharoitida tayyorlangan buyumlarni va asarlarni iste'molga chiqarish va boshqalar.

Xalq hunarmandchiligi moddiy madaniyatimizning eng qadimiy va muhim turlaridan hisoblanadi va tasviriy hamda amaliy san'atining ko'pdan-ko'p sohalari bilan uyg'unlashib ketadi. Shu bilan birga tasviriy va amaliy san'at, buyumlarga badiiy ishlov berish jarayoni hamda xalq hunarmandchiligining o'ziga xos yo'llari, xususiyatlari bir-biridan farqlanadi. Shuning uchun moddiy ma'naviyatning, madaniyatning ushbu sohalariga oid mavjud ta'riflarini keltirib, taqqoslab o'tish o'rinlidir.

Tasviriy san'at – san'at turi bo'lib, rassomlik, grafika, haykaltaroshlik va foto san'ati sohalarini o'z ichiga oladi. Tasviriy san'at real borliqni ko'rgazmali obrazlarda, mavjud predmetlarni ularning tabiiy shakli, o'zni bo'lishini o'ziga o'xshatib, umumlashtirib va tipiklashtirib ifodalaydi[6].

Amaliy bezakchilik san'ati – tasviriy san'atning eng qadimgi turlaridan biri bo'lib, materialga berilgan bezak texnikasiga qarab farqlanadi. Xalq turmush madaniyatini xarakterlaydi. Amaliy bezak san'ati buyumlarining badiiyligi shu buyumlarining amaliy funksiyasi bilan bog'liq.


Hunarmandchilik – hunarmand, har xil oddiy mehnat qurollari yordamida xomashyodan turli mahsulotlar tayyorlanadigan ishlab chiqarish, shunday mahsulotlar

tayyorlaydigan kasblarning umumiy nomi. Bora-bora kulolchilik, duradgorlik, temirchilik, misgarlik, zargarlik, binokorlik, haykaltaroshlik, o'ymakorlik, toshqaroshlik, ko'ncilik, pichoqchilik, do'ppichilik va boshqalar ajrala borgan. Demak yuqoridagi fikrlardan ko'rinib turibdiki, xalq hunarmand-chiligining mohiyati, mazmuni, tuzilishi, xususiyati o'ziga xosdir.

Dunyoda har qanday hunar bo'lmasin, albatta, uning ustalari va uning sho-girdlari bo'ladi. Naqqoshlik, ganchkorlik, misgarlik, pichoqchilik, bo'yrachilik, gilamdo'zlik, zardo'zlik, yog'och o'ymakorlik, savatchi, temirchi, suyak o'yma-kor, sangtarosh, chitgar, zargar va boshqa hunar ustalari bor. Milliy hunarmandchilikni rivojlantirishga katta e'tibor berilayotgan hozirgi bir paytda o'zbek milliy an'analarimiz asosida ustozlar shogirdlariga o'z hunarlarini o'rgatib kelmoqdalar. Xalq amaliy bezak san'ati kishilarning ma'naviy olamini boyitadi, badiiy didini shakllantiradi, ruhiyatini tarbiyalaydi. Shuning uchun ham o'zbek xalq amaliy san'ati kishilarni badiiy, axloqiy, umuminsoniy tarbiyalab, ularning ilmiy dunyoqarashlarini shakllantirishda hamda madaniy darajasini yuksaltirishda eng zarur manbalardan biri hisoblanadi[8].

Ma'lumki, mavjud barcha san'at turlari o'z o'quvchisiga, tinglovchisiga yoki tomoshabinga o'tkazadigan badiiy, hissiy, ruhiy ta'siri orqali bilim beradi va tarbiyalaydi. Shu o'rinda amaliy bezak san'ati turlarining fazilatlarini juda ham o'ziga xos bo'lib, ularni boshqa hech narsa bilan almashtirib bo'lmaydi. Ya'ni bunday san'at asarlari ayni colqda ham badiiy, ham amaliy vazifalarni bajara olishi ularning xalq orasida keng tarqalishiga sabab bo'lgan. Yaqin o'tmishda o'zbek amaliy bezak san'atining eng rivojlangan ganchkorlik, naqqoshlik, yog'och, tosh va suyak o'ymakorligi, kandakorlik, pichoqchilik, zargarlik, kashtachilik, zardo'zlik, gilamchilik, kigizchilik, savatchilik, bo'yrachilik kabi turlarining o'ziga xos bajarish texnologiyalari, haqiqiy milliy nomlari, ularga xos atamalar, bu san'at turlariga xos maktablar, uslublar hamda shu sohalarda nom qozongan ustalarning xizmatlari unutilib, yo'qolib ketish xavfi ostida qolgan edi. Bunday holat hozirgi kunda san'atkorlar, xalq ustalari, muallimlar va san'at havaskorlari oldiga amaliy bezak san'atini saqlab qolish, ularni har tomonlama o'rganish va rivojlantirish, yosh avlodga san'at sir-asrorlarini o'rgatish orqali o'rinbosarlar tayyorlash, san'at asarlarini keng

targ'ib qilish orqali jamoatchilikning estetik didini, madaniy darajasini yanada yuqori bosqichga ko'tarishga erishish vazifalarini qo'yadi. Bu maqsadlar yo'lida olib boriladigan izlanishlar xalq ustalari, san'atkorlar uchun eng qulay shart-sharoitlar yaratish, yoshlarning badiiy ta'lim olishlari, san'atlarni egallashlarini tashkil etish va to'g'ri ilmiy-metodik yo'nalishda olib borish, san'atkor pedagoglar tayyorlashni yo'lga qo'yish, tegishli ilmiy tadqiqotlarni olib borishdan iborat bo'lishi kerak.



Ma'lumki, xalq hunarmanchiligi yoshlarning tafakkuri, tasavvuri, estetik didi, epchilligi kabi sifatlarini shakllantirishga yordam beradi. Zero, bu sifat va fazilatlar yosh avlodni har tomonlama rivojlantirishga samarali ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun yoshlarga xalq hunarmandchiligi ishlarini o'rgatishni hozirgi zamon talablari asosida rivojlantirish va jadallashtirish katta ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda mutaxassis kadrlar tayyorlash, ta'lim berish tizimi hayotimizda, jamiyatimizda bo'layotgan islohotlar, yangilanish jarayonlari talablari bilan yaqindan bog'langaligi har tomonlama sezilmoqda. Biroq, ochiq tan olishimiz kerakki, hozirgi zamon talabiga to'liq javob berishga har kim ham qodir emas, chunki haligacha eskicha fikrlab va yangiliklarni hali to'la-to'kis tushunmaganlar, afsuski, oramizda uchrab turibdi. Bunga avvalo maktab va boshqa o'quv yurtlarining moddiy bazasini juda noqul ahvoldaligi

sababdir. Albatta bu keltirilgan birgina misol tarbiyachi, o'qituvchi xodimlarga ta'sir etmay iloji yo'q.

Yuqorida keltirilgan muammolarni yechish va tushunarli yetkazish, to'g'ri xulosa chiqarish xalq hunarmandchiligi ishlarini o'rgatishga ham tegishlidir. Odatda kirish ko'rsatmasini berishda mavzu va uning maqsadi bayon etiladi, shu bilan birga oldin o'tilgan mavzu bilan bog'lab, o'quvchilarning darsga tayyorgarligi ta'minlanadi. Darsga oid ko'rgazmalar, texnologik xaritalar, asbob-uskuna va moslamalar bilan qanday ishlash lozimligini tushuntiriladi. O'quvchilarning mustaqil ish bajarish bosqichida o'qituvchi ularning xatti-harakatlarini doimiy kuzatib borib, kerakli maslahatlarni beradi. So'ngra ish yakunida avval o'quvchilarning yutuqlarini, so'ngra esa kamchiliklarni ko'rsatadi va o'quvchilar tomonidan bajarilgan ishlarni baholaydi. O'quvchilarni yanada rag'batlantirish uchun ularning ishlaridan ko'rgazmalar tashkil etiladi[13].

Xulosa qilib shuni aytish joizki bugungi kunda yoshlarni kasb-hunarga to'g'ri yo'naltirish, ularda turli kasb-hunarlariga qiziqishni oshirish, kasblarni e'zozlash va faxrlanish tuyg'ularini shakllantirish o'ta muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki kelajagi buyuk davlatimizning kelgusi taqdiri shu masala bilan chambarchas bog'liqdir. Buni o'z o'rnida to'g'ri hisobga olgan hukumatimiz doimo hunarmandchilikni rivojlantirish va yoshlarni hunar o'rganishga yo'naltirish ishiga alohida ahamiyat qaratib kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyot:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. Toshkent, 2020-yil 24-yanvar.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekistonning yangi tarqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PF-6108 Farmoni. T., 2020-yil 6-noyabr.
3. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida"gi qonunlari. //-T.: Sharq, 1997.
4. Axmetova A.S., Ismatullayeva M.Z. Xalq hunarmanchiligi: O'quv qo'llanma. T., TDPU, 2005. – 280 .
5. Bulatov S.S. O'zbek xalq amaliy naqsh san'ati. T.: Mehnat, 1991. – 384 b.

6. Shomirzayev M. K. Developing educational technologies in school technology education //Asian Journal of Multidimensional Research. – 2021. – T. 10. – №. 5. – C. 73-79.
7. Shomirzayev M. K. Education is personally focused technology //European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. – 2020. – T. 8. – №. 8.
8. Shomirzayev M. K. et al. National handicrafts of Uzbekistan and its social–economic significance //European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. – 2020. – T. 8. – №. 8. – C. 129-138.
9. Shomirzayev M. K., Yuldashov K. K. The Educational Importance of Teaching Knowledge to Secondary School Students //CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS. – 2021. – T. 2. – №. 08. – C. 132-142.
10. Shomirzayev M. K. Practical lessons in technology: Characteristics of organization and conduct //Asian Journal of Multidimensional Research. – 2021. – T. 10. – №. 4. – C. 991-1001.
11. Shomirzayev M. K. The concept of pedagogical technology and basic principles //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2020. – T. 10. – №. 11. – C. 1551-1560.
12. Shomirzayev M. K. The Concept of Pedagogical Technology and Basic Principles. Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal.(Affiliated to Kurukshetra University, Kurukshetra, India), Vol. 10, Issue 11, November 2020 Scientific Journal Impact Factor (Sjif 2020-7.13). Part 1554-1563.
13. Shomirzayev M. K. The Ethical Characteristics of Traditional Embroidery of Fergana Valley People //European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. – 2019. – T. 7. – №. 12.
14. Shomirzayev M. K. Technology of Educational Process in School Technology Education //The American Journal of Social Science and Education Innovations. Impact Factor. – T. 5. – №. 02. – C. 212-223.